




**XORAZM VILOYAT STATISTIKA
BOSHQARMASI**

XORAZM VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



**2024- yil
yanvar-dekabr**



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- dekabrda PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-dekabr)

35,4

Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlik
ulushi, % da

14 032,8

Aholi jon boshiga
xizmatlar hajmi -
ming so'mda


64,3

Xizmatlar sohasidagi
korxonalar va tashkilotlar
ulushi, % da




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1-yanvar holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-dekabr)




Soni, birlikda




Soni, birlikda

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(1- yanvar holatiga ko'ra)



Yillar




Soni, birlikda


Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-dekabr)

Yillar




2024 -y.




Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-dekabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi
(2024- yil yanvar-dekabr)



¹⁾ Grafikda va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar uchun aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan, 2023-yil hajmi va 2024- yil yanvar-dekabr oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda shakllantirilgan.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-dekabr)

Hududlar nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xorazm viloyati	28 262,0	100,0	112,0
Urganch shahar	6 258,3	22,1	112,3
Xiva shahar	773,1	2,7	112,1
tumanlar:			
Bog'ot	902,2	3,2	114,0
Gurlan	813,9	2,9	114,1
Qo'shko'pir	832,7	2,9	114,7
Urganch	1 258,4	4,5	112,7
Hazorasp	1 230,1	4,4	115,4
Tuproqqal'a	356,6	1,3	112,4
Xonqa	1 116,6	4,0	115,6
Xiva	837,6	3,0	112,7
Shovot	834,1	3,0	114,3
Yangiariq	728,6	2,6	112,1
Yangibozor	612,9	2,2	113,2

¹⁾ Viloyat hajmida taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-dekabr)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	28 262,0	100,0	112,0
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1 040,6	3,7	134,3
Moliyaviy xizmatlar	4 048,3	14,3	114,0
Transport xizmatlari	4 164,3	14,7	111,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	3 899,3	13,8	108,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	10 285,5	36,4	111,1
Savdo xizmatlari	4 136,4	14,6	112,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	451,8	1,6	111,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	809,5	2,9	99,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	476,0	1,7	109,2
Ijara xizmatlari	254,3	0,9	100,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	805,1	2,9	111,1
Shaxsiy xizmatlar	662,0	2,3	109,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	239,7	0,9	102,2
Boshqa xizmatlar	888,5	3,1	114,4

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST) ga ko'ra muvofiqlashtirildi.


Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-dekabr)

Hajmi, ming so'mda


O'sish sur'ati % da



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-dekabr)




Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-dekabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **35,4** foizni, shu jumladan, **11,8** foizni kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Hajmi, mlrd. so'mda O'sish (kamayishi) % da

Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar-dekabr)



Hajmi, mlrd so'mda O'sishi % da




Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

2024- yilning yanvar-dekabr

oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **59,7** foizini tashkil etdi.


Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2024- yil yanvar-dekabr)



¹⁾ Viloyat hajmida taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Hajmi, mlrd so'mda O'sishi, % da

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **93,6** foiz.

Urganch shahrida transport xizmatlari hajmi **826,8** mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **111,6** foizni tashkil etgan.


Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2024- yil yanvar-dekabr)




¹⁾ Viloyat hajmida taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ⚙️ O'sishi, % da

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-dekabr)




Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar

(2024- yil yanvar-dekabr, mlrd so'mda)

O'sish, % da

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024- yil yanvar-dekabr % da)




Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Urganch shahri ulushi **59,7** foizni yoki **2 418,7** mlrd so'mni tashkil etdi. **2023-yilning yanvar-dekabr** oylariga nisbatan Urganch shahrida o'sish sur'ati **114,2** % ni tashkil etdi.




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni Urganch shahri egalladi va **2024-yilning yanvar-dekabr** oylarida **340,7 mlrd so'mni** tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-dekabr)




Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-dekabr)

Xizmatlar hajmi, mlrd so'mda




O'sish sur'ati, % da



¹⁾ Viloyat hajmida taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr)



Viloyatda ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida Urganch shahri ustunlik qilib, **2024- yil yanvar-dekabr** oylarida uning hajmi **524,7** mlrd so'mni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-dekabr)

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-dekabr oylarida)	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %da	
		2024- y.	2023- y.
Xorazm viloyati	809,5	99,2	112,2
Urganch shahar	524,7	94,6	98,7
Xiva shahar tumanlar:	82,3	95,4	251,1
Bog'ot	17,5	128,8	104,9
Gurlan	9,6	174,7	103,4
Qo'shko'pir	16,0	114,0	102,7
Urganch	33,7	126,4	103,4
Hazorasp	14,0	107,1	107,2
Tuproqqal'a	4,0	100,2	103,5
Xonqa	25,2	116,2	105,8
Xiva	11,1	110,4	117,1
Shovot	12,8	131,2	106,9
Yangiariq	14,3	109,3	108,2
Yangibozor	13,3	115,5	110,7


¹⁾ Viloyat hajmida taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda




Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr)

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida Urganch shahrining ulishi salmoqli o'rinni egalladi va **39,4** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-dekabr)




¹⁾ Viloyat hajmida taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾

(yanvar-dekabr)

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar viloyatning umumiy bozor xizmatlari hajmida **1,6** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024- yil yanvar-dekabr)



¹⁾ Viloyat hajmida taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda




Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

2024- yilning yanvar-dekabr

oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlari ustunlik qildi – **98,5** foiz.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar-dekabr)

10 285,5




Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-dekabr)



¹⁾ Viloyat hajmida taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida ijara xizmatlari

(2024- yil yanvar-dekabr, mlrd so'mda)



Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2024- yil yanvar-dekabr** oylarida Urganch shahri va Urganch tumanining ulushi **42,3 %** ni tashkil etdi.


¹⁾ Viloyat hajmida taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda






Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-dekabr)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **21,8** foizini tashkil etadi.


Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-dekabr)



¹⁾ Viloyat hajmida taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda O'sish, % da

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-dekabr, mlrd so'mda)



2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **2024- yilning** ushbu oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **239,7** mlrd so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Urganch shahrining ulushi **77,4** % ni tashkil etdi.

¹⁾ Viloyat hajmida taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalar operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.